

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

С.Неъматжан, О.А.Акбаров, З.Ш.Нуридинов	
Коммуникативные качества речи	742
М.Т.Абдулаттоев	
О'zbek tilining funksional sintaksisi masalalari	746
А.Р.Косимов	
Формирование компетенций в изучении русского языка	750
N.A.Quldashev	
Ijtimoiy muloqotda o'zbek tilidan foydalanilish	754
X. Sharifiddinov	
Aforizm – falsafiy mushohadalar ifodasi	757
А.Г.Мухиддинов	
Нейросемiotические механизмы идентификации новшества	760
М.А.Хусанова	
О'zbek tilshunosligida idiosil antropotsentrik yondashuv mahsuli sifatida	765
E.I.Ibragimova	
Aksiologik bahoning uslubiy xususiyatlari	768
Z.M.Sobirova	
Neyropsixolingvistik konsepsiyalar	771
G.Sh.Kaxxorova	
Til tizimida yordamchi so'zlarning o'rni va vazifalari	776



IJTIMOIY MULOQOTDA O'ZBEK TILIDAN FOYDALANILISH

USE OF THE UZBEKI LANGUAGE IN SOCIAL COMMUNICATION

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В СОЦИАЛЬНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Quldashev Nizomidin Axmadaliyevich 

Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrası dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilning o'ziga xosligi, bugungi kundagi tilning o'rni, ijtimoiy hayotda o'zbek tilining foydalanish holatlari, uning insonlarga qilayotgan salbiy yoki ijobiy ta'sirlari ma'lum qonunlar va asosli misollar orqali ochib berilgan.

Abstract

In this article, the uniqueness of the language, the role of the language today, the use of the Uzbek language in social life, its negative or positive effects on people are revealed through certain laws and valid examples.

Аннотация

В данной статье через определенные законы и действительные примеры раскрываются уникальность языка, роль языка сегодня, использование узбекского языка в общественной жизни, его негативное или положительное влияние на людей.

Kalit so'zlar: til, o'zbek tili, chet tillari, ijtimoiy hayot, muassasa va boshqa joylardagi nomlar.

Key words: language, uzbek language, foreign languages, social life, names in institutions and other places.

Ключевые слова: язык, узбекский язык, иностранные языки, общественная жизнь, имена в учреждениях и других местах.

KIRISH

Muloqot jarayoni insonlar o'rtasidagi ijtimoiy ehtiyoji sanalib muloqot qilish orqali insonlar o'z fikr hamda mulohazalarini almashishi, bir-biriga ta'sir etishi, kelishuv belgilashi, maslahatlashishi, bahslashishi va o'z fikrini bayon etishda foydalaniladi. Mazkur jarayonda esa til va nutq asosiy kommunikatsiya vazifasini bajaradi. Insonlar nutqiy jarayonda til birliklaridan foydalangan holda o'z fikrlarini bayon etadilar. Bizga ma'lumki, til va nutq o'zaro chambarchas yaxlit tushuncha ko'rinishida kelishiga qaramasdan, jahon tilshunosligida ushbu masala tilshunos olimlar tomonidan turli mulohazalarga sabab bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Struktur tilshunoslik vakillari F.Sossyur ta'limoti izidan borib, ushbu ikki atamani bir-biridan farqlab berishga urinishganini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Xususan, N.A.Slyusareva va V.Y.Zveginsev F.Sossyur nazariyasini davom ettirib, til va nutq orasidagi farqlarni ko'rsatib bergan. V.Y.Zveginsev fikricha, nutq individual, til umumiy hodisadir. Nutq psixik hodisa, til sotsialdir. Nutq harakatchan, dinamik, til esa stabilikka, statiklikka intiladi.⁸⁵ Insonlar orasida bo'ladigan nutqiy muloqot rasmiy va norasmiy guruhga bo'linadi. Rasmiy muloqot uslubi ma'lum bir hodisaga adabiy me'yor qoidalariga binoan yondashib, rasmiy so'zlashuv uslubi, to'g'ri intonatsiya, muayyan leksikani qo'llagan holda amalga oshiriladi.

MUHOKAMA

Rasmiy muloqot asosan xalqaro diplomatik munosabatlar, ma'muriy-huquqiy soha, iqtisod, harbiy soha, hukumat faoliyatini va rasmiy muassasalarda amalga oshirishda qo'llaniladi. Davlat boshqaruvi bilan bog'liq turli xil vaziyatlarda, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotini hujjatlashtirishda yozma rasmiy muloqot uslubi ishlatiladi. Rasmiy muloqotning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda belgilangan maxsus gazeta uslubida ko'p qo'llaniladigan iboralar

⁸⁵ Nurmonov A. Tanlangan asarlar. Jild 1. – Toshkent: Akademnashr, 2012.

TILSHUNOSLIK

foydalaniladi. Prezident farmonlari, davlat tomonidan qabul qilingan qarorlari, davlatlararo shartnomalar, memorandumlar, diplomatik yozishmalar va protokol; shuningdek, huquqiy qonunlar, kodekslar va nizomlar; idoralararo ko'rsatmalar, buyruqlar va ma'lumotnomalar, anketalar va e'lonlar, har xil turdagi bayonnomalar, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi shartnomalar, ishonchnomalar aynan rasmiy muloqot me'yorlariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash joizki, rasmiy muloqot o'ziga xos prinsiplarga ega bo'lib, nutq batafsillik, aniqlik, so'zda qat'iylik, mantiqiylik, fikrni ifodalashda ixchamlik, manbalarning rasmiylashtirishning maxsus me'yorlari, takror va mavzudan tashqari tafsilotlarni kiritmaslik zarur hisoblanadi. Muloqotning ikkita turi mavjud bo'lib, ular verbal va noverbal turlarga ajraladi: verbal muloqot so'zlar, jumlar orqali yuzaga keladi, biz og'zaki yoki yozma ravishda murojaat qilganimizda tovushlarni so'zlarga aylantiramiz va ular bizning fikr va g'oyalarimizni o'zida aks ettiradi noverbal muloqotda inson his-tuyg'ularini ifodalash vositasifatida imo-ishoralar, ohang, mimika, odamning holati, qarashlari, intonatsiyasi, suhbatdoshga nisbatan hududiy joylashuvi, masofadan foydalanadi. Biz muloqotni vositalar xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin, ya'ni bevosita va bilvosita. Bevosita muloqot tirik mavjudotga tabiat tomonidan berilgan tabiiy organlar: qo'llar, bosh, tana, tovush paychalari va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Bilvosita muloqot bu axborot almashinuvini tashkil etishda maxsus vosita va qurollar yordamida amalga oshiriladi. Bular tabiiy (yog'och, yerdagi izlar va h.k.) va madaniy (belgilar tizimlari, matbuot, radio, televideniya, internet va h.k.) jismlar orqali amalga oshiriladi. Bevosita muloqot shaxsiy aloqalar va muloqot aktining o'zida qatnashayotgan odamlarning bir-birini bevosita idrok qilishini belgilaydi. Bunga jismoniy aloqalar, odamlarning o'zaro suhbatlashishlari, bir-birlarining harakatlarini bevosita ko'rib turgan holda, ularga javob qaytarishlari kiradi. Bilvosita muloqot vositachilar sifatida ish yuritadigan boshqa odamlar orqali amalga oshiriladi⁸⁶.

NATIJALAR

Muloqot jarayonida til foydalanuvchilari orasida til qoidalariga amal qilmasdan foydalanish holatlari uchrab turadi. Masalan, bekat o'rniga "остановка", piyodalar yo'lagi o'rniga "пешеход" so'zlari, ingliz tilidagi "ok" kabi so'zlar aytilmoqda. Bunday xatolarni og'zaki nutqda to'g'ri muqobilidan foydalangan holda tuzatish mumkin. "The best food", "Halal food", "Bookstore", "Booktime", "Nurbooks" kabi nomlarga ko'zimiz tushadi. Buni o'rniga esa "Eng yaxshi taomlar", "Halol taomlar", "Kitoblar olami" kabi nomlardan foydalanish mumkin. Eng afsuslanarlisi shundaki, u yerning faqat nomigina boshqa tilda emas. Balki, u yerdagi taomlar ro'yxati, taomlar nomlari ham o'zbek tilida



emas. Bundan tashqari, ko'chalardagi ba'zi joylarga qo'yilgan nomlarning tarjimai esa o'zbek tiliga tarjima qilinganida esa salbiy ma'nolarni anglatadi. Masalan, "Terra Pro" erkaklar kiyim do'konining nomini o'zbek tiliga tarjima qilsak, "Dahshat" degan ma'noni anglatadi. Pochta ko'chasidagi "Zolushka" to'y liboslari salonining nomini ruschadan tarjima qilsak, "baxtsiz, shakkok qiz"⁸⁷ degan ma'noni beradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, insonlarga ta'sir darajasi yuqori bo'lgan joylar ko'chadagi ijtimoiy hayot hisoblanadi. Insonning ko'rish orqali olgan ma'lumoti esa sakson foiz holatda aqliga kiradi va doim shu narsani takrorlashiga sababchi bo'ladi. Shunday ekan, ko'chalardagi xususiy yoki boshqa muassasa, do'kon, ovqatlanish markazlari, kitob do'konlari va shu kabi joylardagi nomlarni, ularning ichidagi ma'lum reklamalarni, ro'yxatlarni va shunga o'xshash insonlar foydalanadigan barcha yozuvlarni sof o'zbek tilida, lotin yozuvida qilish bilan insonlarga o'zbek tilini e'zozlashni, doim o'z tilida muloqot qilishni o'rgatish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek tilining katta imlo lug'ati. – Toshkent: Kafolat print company nashriyoti, 2023.
2. "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili to'g'risida"gi qonuni, 3561-XI-son.
3. O'zbek tilining imlo lug'ati. Toshkent: O'qituvchi NMIU, 2018.

⁸⁶ <https://uz.drunkentengu.com/kommunikatsii-ponyatie-opredelenie-vidyi-klassifikatsii-i-osnovnyie-printsipy-130e68>

⁸⁷ <https://zarnews.uz/post/shahar-dokon-nomlari-tarjimasidagi-dahshatlar>

4. <https://zarnews.uz/post/shahar-do-kon-nomlari-tarijimasidagi-dahshat-lar>
5. <https://uz.drunkentengu.com/kommunikatsii-ponyatie-opredelenie-vidyi-klassifikatsii-i-osnovnyie-prinsipyi-130e68>
6. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. Jild 1. – Toshkent.: Akademnashr, 2012.